



## KORPORATIV NIZOLARNI HAL ETISHNING O`ZIGA XOS JIHATLARI

**Xabibullaev Davlatjon Yulchibaeovich**

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori,  
yuridik fanlar nomzodi*

**Ibratova Feruza Boboqulovna**

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori*

**Abdullayeva Sitarabonu**

*Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada korporatsiya, korporativ huquqiy munosabatlar, korporativ nizo tushunchalari o`rganilgan, shuningdek, bu borada xorijiy olimlarning nazariyalari tadqiq etilgan. Korporativ huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qonunchilikda mavjud bo`shliqlar va korporativ nizolarni sudlar tomonidan hal etishning o`ziga xos jihatlari yoritib berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *korporatsiya, korporativ huquqiy munosabatlar, korporativ nizo, cheklangan javobgarlik, markazlashgan boshqaruv.*

## ОСОБЕННОСТИ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ СПОРОВ

**Хабибуллаев Давлатжон Юлчибаевич**

*Профессор Ташкентского государственного юридического университета,  
кандидат юридических наук*

**Ибратова Феруза Бобокуловна**

*И.о. профессор Ташкентского государственного юридического университета,  
доктор юридических наук*

**Абдуллаева Ситарабону**

*Магистрант Ташкентского государственного  
юридического университета*

**Аннотация:** *В данной статье изучается понятия корпорации, корпоративных правоотношений, корпоративного спора, а также исследованы взгляды зарубежных учёных относительно этого. Выявлены пробели в законодательстве в регулировании корпоративных правоотношений и особенности разрешения корпоративных споров судами.*

**Ключевые слова:** *корпорация, корпоративные правоотношения, корпоративный спор, ограниченная ответственность, централизованное управление.*



## FEATURES OF RESOLVING CORPORATE DISPUTES

**Khabibullaev Davlatjon Yulchibaevich**

*Professor of Tashkent State University of Law, Ph.D. in Law*

**Ibratova Feruza Bobokulovna**

*Professor of Tashkent State Law University, Doctor of Law*

**Abdullaeva Sitarabon**

*Master student of the Tashkent State Law University*

**Annotation:** This article studies the concepts of a corporation, corporate legal relations, a corporate dispute, and also explores the views of foreign scientists regarding this. The gaps in the legislation in the regulation of corporate legal relations and the peculiarities of resolving corporate disputes by the courts are revealed.

**Key words:** corporation, corporate relations, corporate dispute, limited liability, centralized management.

Yangi O`zbekistonning 2022–2026-yillarga mo`ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yetti ustuvor yo`nalish nazarda tutilgan bo`lib, uning uchinchi yo`nalishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o`sish sur`atlarini zamon talablari darajasida ta`minlashga qaratilgan<sup>108</sup>. Ushbu yo`nalish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, tadbirkorlikning doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadini ham o`z ichiga qamrab oladi<sup>109</sup>.

Shu o`rinda aytish joizki, bir qancha huquq sohalari singari korporativ huquq ham tadbirkorlik faoliyati erkinligini huquqiy jihatdan kafolatlash, shuningdek, mamlakatda iqtisodiy islohotlarni keng amalga oshirish va samarali ro`yobga chiqarishda muhim o`rin tutadi<sup>110</sup>.

Korporativ huquq bizning qonunchilikda yaqin yillarda paydo bo`lgan va u xorijiy davlatlar huquq tizimida anchagina keng rivojlangan institut sanaladi<sup>111</sup>. O`zbekiston qonunchiligida korporatsiya, korporativ huquq kabi atamalarga legal ta`rif berilmagan, normativ-huquqiy hujjatlarda ham korporativ huquqqa oid normalar kam uchraydi. Shu boisdan dastlab korporatsiya atamasiga anqlik kiritib olsak<sup>112</sup>.

Yuridik adabiyotlarda olimlar tomonidan ushbu atamaga turlicha ta`rif berib o`tilgan. Y.A.Ivanova va L.V. Shishikina korporatsiyani “umumiyl maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko`rsatish uchun birlashgan jismoniy va huquqiy shaxslar birlashmasi”<sup>113</sup>, deya

<sup>108</sup> Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

<sup>109</sup> Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

<sup>110</sup> Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

<sup>111</sup> Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022. – 2022.

<sup>112</sup> Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.

<sup>113</sup> Иванова.Е.А. Шишикина Л.В. Корпоративные управление. Ростов н/Д.: “Феникс” 2007. С 35.



ta’riflasa, boshqa bir ingliz olimi quyidagi 5 ta belgini o`zida aks ettirgan birlashmani korporatsiya sifatida e’tirof etish mumkin degan:

1. Yuridik shaxs ekanligi (legal personality).
2. Cheklangan javobgarlikning mavjudligi (limited liability).
3. O`tkaziladigan aksiyalarning bo`lishi (transferable shares).
4. Markazlashgan boshqaruvga egaligi (centralized management under a board structure).
5. Hissadorlar tomonidan umumiy egalik (shared ownership by contributors of capital)<sup>114</sup>.

H.R.Rahmonqulov korporatsiyani maqsadi, asosan, daromad olishga va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, mahsulot ishlab chiqarish, uni ayrboshlash bilan shug`ullanadigan tashkilot deb atagan.

Korporatsiya, korporativ huquqiy munosabatlar tushunchalari bilan bir qatorda, korporativ nizo atamasi ham mavjud bo`lib, korporativ nizo yuridik shaxs (korporatsiya) ta’sischilari, shuningdek, jamiyat va uning muassislari o`rtasida vujudga keladigan nizo hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 25-moddasi 5-bandiga ko`ra korporativ nizolar iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladi. Korporativ nizolarning bir qancha turlari mavjud bo`lib, ularning ro`yxati Iqtisodiy protsessual kodeksning 30-moddasida keltirilgan. Quyida mazkur toifadagi nizolarning o`ziga xos ayrim jihatlari va ularni hal etish asoslarini keltirib o`tamiz.

IPK ning 30-moddasi 1-bandida yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog`liq korporativ nizolar keltirib o`tilgan. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevralda qabul qilingan 66-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish tartibi to`g`risida”gi Nizomda yuridik shaxsni davlat ro`yxatidan o`tkazish tartibi belgilab berilgan. Ayrim holatlarda yuridik shaxs muassislari yuridik shaxsni davlat ro`yxatidan o`tkazish uchun murojaat qilganda mazkur Nizomga muvofiq davlat ro`yxatidan o`tkazishga vakolatli bo`lgan davlat organi va murojaat qilgan muassislar o`rtasida nizo yuzaga kelib chiqishi kuzatiladi. Masala shundaki, ushbu vaziyatda yuzaga kelgan nizo qaysi sudning sudloviga taalluqli bo`ladi, bu turdagи nizoni korporativ nizo deb atash mumkinmi? Ushbu holatga quyidagicha yondashish to`g`ri bo`ladi. Agar aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish haqida qaror qabul qilgan aksiyadorlar jamiyatni davlat ro`yxatidan o`tkazish uchun yuqorida keltirilgan Nizom talablarida ko`rsatilgan tegishli hujjalarni rasmiylashtirgan holda vakolatli davlat organiga murojaat qilib, ularning murojaati rad qilinadigan bo`lsa, ushbu nizo ma’muriy sudlarning sudloviga taalluqli bo`ladi<sup>115</sup>. Chunki, birinchidan, ushbu holatda nizo aksiyadorlik jamiyatini tashkil qilayotgan aksiyadorlar va davlat organi o`rtasida vujudga kelyapti, ikkinchidan, bu nizoni korporativ nizo deb atash uchun tashkil etilayotgan korporatsiya yuridik shaxs maqomiga ega bo`lishi lozim.

<sup>114</sup> John Armour, Henry Hansmann, Reinier Kraakman. The essential elements of corporate law. What is corporate law? Harvard Law School Cambridge. Page 6. 7/2009.

<sup>115</sup> Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.



Vaholanki, davlat ro`yxatidan o`tmasdan turib tadbirkorlik subyekti yuridik shaxs maqomiga ega bo`lolmaydi<sup>116</sup>.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to`g`risida”gi qonunning 8-moddasida jamiyat ishtirokchilarining huquqlari belgilab berilgan. Mazkur huquqlardan biriga ko`ra jamiyatdagi umumiy ulushi ustav kapitalining eng kami 10 foizini tashkil qiladigan jamiyat qatnashchilari o`zining majburiyatlarini qo`pol ravishda buzayotgan, o`zining xatti-harakatlari yoxud harakatsizligi oqibatida jamiyatning faoliyat yuritishiga imkon bemayotgan va uni jiddiy holatda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud orqali chiqarish talabini qo`yishga haqli sanaladi<sup>117</sup>. Bu yerda e’tibor qaratish lozim bo`lgan tomon shundaki, qonunda aynan qaysi holatlar “jamiyat ishtirokchisining o’z majburiyatlarini qo`pol ravishda buzishi, o`zining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida jamiyatning faoliyat yuritishiga to`sinqinlik qilishi va uni jiddiy tarzda qiyinlashtirishi” sifatida e’tirof etilishi ko`rsatilmagan. Bu esa sudlar tomonidan jamiyat ishtirokchilari o’rtasida yuzaga keladigan korporativ nizoni to`g`ri hal etishda to`sinqinlik qilishi mumkin<sup>118</sup>. Qonunchilikdagi ushbu bo`shliqning to`ldirilishi va ushbu holatlarning aniq ro`yxatining shakllantirilishi nizoni o’z vaqtida va adolatli hal etishda muhim o`rin tutadi, deb hisoblaymiz.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to`g`risida”gi qonunning 29-moddasi, shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi qonunning 57-moddasiga muvofiq jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig`ilishi jamiyatning boshqaruv organi hisoblanadi. Umumiy yig`ilish tomonidan qabul qilingan qarorni haqiqiy emas deb to`g`risidagi korporativ nizolarda da’vogar umumiy yig`ilishda qatnashmagan yoki qabul qilinayotgan qarorga qarshi ovoz bergen ishtirokchigina bo`lishi mumkin<sup>119</sup>.

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig`ilish qarorini haqiqiy emas deb topishda Fuqarolik kodeksining bitimlarni haqiqiy emas deb topish to`g`risidagi normalarini tatbiq etish mumkinmi, boshqacha qilib aytganda, umumiy yig`ilish qarori bitim bo`la oladimi? Bu borada qonunchiligidizda aniq tushuntirish berib o’tilgan. 2014-yil 20-iyunda qabul qilingan “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to`g`risida”gi Plenum qarorining 14.2-bandiga asosan umumiy yig`ilish qarori bitim hisoblanmaydi. Shuning uchun ham umumiy yig`ilish qarorini haqiqiy emas deb topish bilan bog`liq ishlarni sudda ko`rishda fuqarolik kodeksining bitimlarni haqiqiy emas deb topishga oid qoidalarini qo’llash mumkin emas<sup>120</sup>.

<sup>116</sup> Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.

<sup>117</sup> Babakulovna I. F. Grounds for the introduction of bankruptcy procedures for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – C. 5-9.

<sup>118</sup> Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.

<sup>119</sup> Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko`rishning o`ziga xos jihatlari. M.Saidov. Amaliy qo’llanna. Toshkent 2019. 159-bet.

<sup>120</sup> Boboqulovna I. F., Orif o’g’li R. B. MEDIATSIYA-OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.



Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, amaldagi qonun hujjatlarimizda mavjud bo`lgan bo`shliqlar korporativ nizolar bilan bog`liq munosabatlarni tartibga solishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur sohaga oid normalarga tushuntirish va izohlar berishga zarurat yuzaga kelmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, sohaga aloqador sud amaliyotini, shuningdek, xorijiy davlatlarning sud amaliyoti, qonunchiligi va huquqni qo`llash ko`nikmalarini o`rgangan va tahlil qilgan holda tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish zarurdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.
2. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
3. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.
4. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.– 2022. – 2022.
5. Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.
6. Иванова.Е.А. Шишикина Л.В. Корпоративное управление. Ростов н/Д.: “Феникс” 2007. С 35.
7. John Armour, Henry Hansmann, Reinier Kraakman. The essential elements of corporate law. What is corporate law? Harvard Law School Cambridge. Page 6. 7/2009.
8. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.
9. Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.
10. Babakulovna I. F. Grounds for the introduction of bankruptcy procedures for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – C. 5-9.
11. Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.
12. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko`rishning o`ziga xos jihatlari. M.Saidov. Amaliy qo`llanma. Toshkent 2019. 159-bet.
13. Boboqulovna I. F., Orif o`g`li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.